



ON THEORETICAL AND PRACTICAL ISSUES OF CONCEPTUAL ANALYSIS

Akmal Gulamjanovich Yuldashev

Professor (DSc)

*Uzbekistan State World Languages University
Tashkent, Uzbekistan*

akmal1909@mail.ru

<https://orcid.org/0009-0006-0157-1667>

<https://doi.org/10.36078/1767726137>

Abstract. This article explores the theoretical foundations of conceptual analysis and its practical applications. The analysis is conducted at the intersection of cognitive linguistics and cultural linguistics. The connection between language and thought is currently recognized as a central issue in linguistics. This study, framed within cognitive linguistics, utilizes empirical data to analyze the content, structure, and national and cultural characteristics of concepts, as well as their manifestation in language. It also examines the methodological principles, research methods, and scientific approaches relevant to conceptual analysis. The article specifically investigates the concept of LANGUAGE in the unrelated languages of English and Uzbek, focusing on its representation in various linguistic elements, including simple words, derivatives, phraseological units, proverbs, and aphorisms. Additionally, it highlights their national and cultural characteristics, as well as their similarities and differences. The study develops cognitive models related to the concept of LANGUAGE, demonstrating its status not only as a means of communication but also as a mental unit. The cognitive models discussed include LANGUAGE – POWER, LANGUAGE – CAUSE, LANGUAGE – EFFECT, LANGUAGE – PERIODIC DEVELOPMENT, LANGUAGE – CHARACTER, LANGUAGE – LIE, LANGUAGE – AUTHORITY, and LANGUAGE – EMOTION. The findings of this study strengthen the theoretical framework of conceptual analysis while enhancing its practical effectiveness. This work contributes significantly to a deeper understanding of the intricate relationships between language and thought and identifies new directions for scientific research.

Keywords: concept; cognitive model; representation; national-cultural; categorization; conceptualisation.

KONSEPTUAL TAHLILNING NAZARIY VA AMALIY MASALALARI XUSUSIDA

Akmal Gulamjanovich Yuldashev

Professor (DSc)

*O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti
Toshkent, O'zbekiston*

Annotatsiya. Maqolada konseptual tahlilning nazariy asoslari va uning amaliy qo'llanish imkoniyatlari atroflicha yoritildi. Konseptual tahlil kognitiv tilshunoslik hamda lingvokulturologiya chorrahasida amalga oshirildi. Ma'lumki, til va tafakkur munosabati hozirda tilshunoslik ilmining markaziy nuqtasi sanaladi. Kognitiv tilshunoslik doirasida olib borilayotgan tadqiqotlarda konseptning mazmuni, uning strukturasi, milliy-madaniy xususiyatlari va tilda voqelanishi empirik materiallar asosida tahlil qilindi. Shuningdek, konseptual tahlilning metodologik tamoyillari, tadqiq usullari hamda ilmiy yondashuvlari ko'rib chiqildi. Maqolada qardosh bo'lmagan ingliz va o'zbek tillaridagi TIL/LANGUAGE konsepti va ularning turli til birliklarida: sodda so'z, yasama so'z, frazeologik birliklar, maqollar va aforizmlarda voqelanishi hamda milliy-madaniy xususiyatlari, o'xshash va farqli jihatlari ochib berildi. Tadqiqot davomida TIL/LANGUAGE konseptlarining kognitiv modellari ishlab chiqildi. Xususan, TIL/LANGUAGE konseptlarining nafaqat muloqot vositasi, balki mental birlik maqomi TIL – KUCH-QUDRAT, TIL – SABAB, TIL – OQIBAT, TIL – DAVRIY TABAQALANISH, TIL – XARAKTER, TIL – YOLG'ON, TIL – SALOHIYAT, TIL – HAYAJON kognitiv modellari orqali isbotlandi. Tadqiqot natijalari konseptual tahlilning nazariy poydevorini mustahkamlashga, shuningdek, uning amaliy samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Mazkur ish til va tafakkur o'rtasidagi murakkab munosabatlarni chuqurroq anglashga hamda ilmiy izlanishlar uchun yangi yo'nalishlarni belgilashga yaqindan yordam beradi.

Kalit so'zlar: konsept; kognitiv model; reprezentatsiya; milliy-madaniy; konseptuallashtirish; kategoriyalashtirish.

Kirish

Hozirgi zamon tilshunosligida tilni kognitiv jihatdan tahlil qilish til va tafakkur munosabatini yanada chuqurroq o'rganishni taqozo etmoqda. Jumladan, konsept va uning tilda voqelanish masalalari dolzarb sanaladi. So'nggi yillarda yurtimizda amalga oshirilayotgan chog'ishtirma plandagi konseptlar tadqiqida uning mental birlik sifatidagi maqomi to'liq ochib berilmayotganligi, bunday tahlillar konseptual tahlildan ko'ra an'anaviy semantik tahlil nazariyasi asosida amalga oshirilayotganligi kuzatilmoqda. Shu boisdan mazkur maqolamizda konseptual tahlilga doir nazariy qarashlar hamda mental birlik hisoblanuvchi konseptning ushbu nazariya asosidagi tahlili xususida so'z yuritishni joiz deb bildik.

Til tizimi va insonning nutqiy faoliyatini har tomonlama tadqiq qilish, ularga xos belgi-xususiyatlarni batafsil yoritish uchun tilshunoslikning turli

sohalarini birlashtiradigan, ularning barchasi uchun bir xilda tayanch nuqta xizmatini o'taydigan umumlashgan tahlil tizimini topish olimlar oldidagi dolzarb muammo bo'lib, bu hozirga qadar aniq yechimini topgan emas. Bu kabi tahlil tizimi to'g'risida Boduyen de Kurtene shunday degan edi: "Tilda ruhiy va ijtimoiy dalillar harakatda bo'lishi sababli tilshunoslik uchun yordamchi fan sifatida dastlabki o'rinda psixologiyani va undan keyin kishilarning jamiyatdagi munosabatlari haqidagi fan — sotsiologiyani tanlaymiz" [Boduen de Kurtene.1963: 217]. Til falsafasi yuzasidan tadqiqotlar olib borgan V.fon Humboldt insonning olamni idrok etishida til va tafakkur munosabati, tilning tafakkurga ta'siri haqidagi qarashlarni ilgari surgan, shuningdek, fanga "xalq tili — xalq ruhidir" [Humboldt 1984: 359], "Tillarning xilma-xilligi faqat tovushlarning turlichaligi emas, balki har bir millatdagi dunyoni ko'rishning farqliligi natijasidir", degan serqirra fikrlarni olib kirgan edi. Mazkur falsafiy qarash negizida XX asrning so'nggi choragiga kelib tilshunoslik fanida kognitiv yondashuvga asoslangan nazariya maydonga keldi. N. Mahmudovning til xalq, millat ruhining betakror va hech bir zamonda xira tortmas ko'zgusi ekanligi har bir tilda shu til egasi bo'lgan millatning, ruhiyati aks etishi xususidagi fikri [Mahmudov 1998: 11–12] juda o'rinli hisoblanadi.

Til va tafakkur munosabatlari masalasining falsafa, tilshunoslik va psixologiya fanlari doirasida batafsil muhokama qilinishi kognitiv tilshunoslik taraqqiyoti uchun mustahkam zamin yaratdi. Kognitiv tilshunoslik majmuaviy tadqiqot sohasi bo'lib, u tilshunoslik va psixologiyadan tashqari sun'iy intellekt nazariyasi, psixolingvistika, neyrolingvistika kabi fanlar sohalariga oid ilmiy yondashuvlarni ham umumlashtiradi.

Yurtimiz tilshunoslari tomonidan ham mazkur yo'nalishning maqsad va vazifalari belgilab berildi, amalga oshirilishi lozim bo'lgan masalalarga munosabat bildirildi. Jumladan, D. Ashurova [Ashurova 2004, 2023], Sh. Safarov [Safarov 2006], O'. Yusupov [Yusupov 2011], A. Mamatov [Mamatov 2012], N. Mahmudov [Mahmudov 2012], D. Xudoyberganova [Xudoyberganova 2013], A. Yuldashevlar [Yuldashev 2017, 2022] tomonidan kognitiv tilshunoslik muammolari, bu yo'nalishda o'z yechimini kutayotgan masalalar belgilab berildi. Yuqorida qayd etilgan olimlarning izlanishlarida kognitiv tilshunoslikda mental birlik sifatida tadqiq qilinayotgan konsept xususida ham munosabat bildirilgan bo'lsa-da, konseptning nazariy masalalari va ushbu mental birlikka xorij olimlari tomonidan berilgan ayrim ta'riflarga to'xtalib o'tish o'rinli sanaladi.

Asosiy qism

Kognitiv tilshunoslik sohasida fundamental izlanishlar olib borgan Y. S. Kubryakova konseptning mohiyati haqida soʻz yuritib, uni ong, ruhiy imkoniyatlar hamda inson bilimi, tajribasini aks ettiruvchi tafakkur birligi sifatida qayd etadi. Uning fikricha, konseptual tizim fikr yuritish hamda inson ruhiyatida voqelik qiyofasini aks ettiruvchi tuzilmadir, xotira mental leksikonining faol mazmun birligi, ongning konseptual tizimi, butun olam manzarasi inson ruhida oʻz aksini topadi [Kubryakova va b. 1997: 90].

Mazkur maqolada Y. S. Kubryakova T. Klausner, U. Kroft, N. N. Boldirevlar [Kubryakova 1997, Clausner T.C. & Croft W 1999; Boldirev 2014] tomonidan ilgari surilgan “konsept — inson tafakkurining harakatchan birligi yoki tizimli bilim kvanti” tarzidagi taʼrifiga tayanamiz. Negaki konsept insonning tashqi olamni idrok etishda faol harakatlanib, uning ongida mental ravishda namoyon boʻladigan birlikdir. Til nutq jarayonida konseptlarni uzatish yoki faollashtirish uchun kerak. Hozirgi zamon tilshunosligida konsept tabiatini oʻrganishda turli yondashuvlar eʼtirof etiladi. Ularning biri kognitiv izohga asoslanib, unda insonning bilimi va tajribasi birinchi oʻringa qoʻyiladi. Ikkinchi yondashuvda konsept lingvokulturologik birlik sifatida talqin etiladi.

Konsept borliqning turli aspektlarini oʻzida aks ettirish imkoniyatiga ega boʻlgan ong tuzilmasi boʻlib, toʻliq mazmun kasb etuvchi va boshqa kichik boʻlaklarga boʻlinmaydigan, yaʼni ichki qatlamning elementar tomonini ifodalovchi tafakkur birligi hamda individning tashqi olam haqidagi bilgan, oʻylagan, tasavvur qilgan maʼlumotlari yigʻindisidir. Konseptning shakllanishi bevosita til bilan bogʻliq emas, u obrazlar, ramzlar, sxemalarni ifodalab, aqlan idrok etishda yuzaga keladi.

Z. D. Popova va I. A. Sternin konsept — til — maʼno munosabatini quyidagicha izohlaydilar: “Konsept — tafakkur faoliyatining global birligi; til — inson ongi, uning konseptosferasi, konsept mazmuni va strukturasi kirib boruvchi vositalardan biri sifatida namoyon boʻladi. Til birliklari maʼnolarining yigʻindisi tilning semantik maydonini hosil qiladi. Konsept konseptosfera birligi boʻlsa, maʼno tilning semantik maydon birligidir. Maʼno — lisoniy ong elementi, konsept kognitiv tafakkur boʻlagidir. Konsept va maʼno teng qiymatli kognitiv va tafakkur hodisalaridir. Maʼno kommunikatsiya maqsadida tilga birlashtirilgan tafakkur birligi sifatida konseptning bir qismini tashkil qiladi” [Popova & Sternin 2007: 19].

Inson borliqdagi narsa va hodisalarni, asosan, til orqali idrok etadi, xotirasida saqlaydi va uni konseptual tizimiga joylaydi. Ushbu jarayonda konseptualashtirish va kategoriyalashtirish muhim oʻrin tutadi [Boldirev 2012: 103]. Aniqroq aytadigan boʻlsak, inson olamni idrok etar ekan,

albatta, bu jarayonda egallanayotgan bilimni ungacha bo‘lgan bilimlar bilan o‘zaro qiyoslaydi hamda taqqoslash asosida ongda yangi konsept shakllanadi.

Yuqoridagilardan anglashiladiki, tahlil obyekti sifatida tanlangan konsept til egalarining olam haqidagi bilimlari, tajribasini aks ettiruvchi mental birlik bo‘lib, sodda so‘z, qo‘shma so‘z, so‘z birikmasi, turg‘un birikma, frazeologizm, maqol va matal, kontekst, hattoki butun bir asar makromatni vositasida voqelanishi mumkin. Tadqiqot manbasi esa, avvalo, izohli lug‘atlar, frazeologik lug‘atlar, maqol va matallar lug‘ati, ramziy ma‘nolarni ifodalovchi lug‘atlar, assotsiativ lug‘atlar, tezaurus lug‘atlar, sinonimlar, antonimlar, omonimlar lug‘ati, albatta, tanlangan konseptning har xil matn turlarida verballashuvidan iborat bo‘ladi.

Konsept qat‘iy tuzilishga ega emas, u xuddi qor to‘piga o‘xshaydi, u qancha qor ustida dumalatilsa, hajmi shuncha ortib boraveradi [Boldirev 2014: 45]. Anglashiladiki, har qanday konsept tadqiqida uning til birliklari vositasida eksplitsit yoki implitsit tarzda verballashuvi ochib berilishi lozim. Til tizimida va nutqda konseptni ifodalashning barcha lisoniy vositalarini qiyoslash konseptning asosiy mazmunini, shuningdek, til materialini tashkil qilish tamoyillarini aniqlash imkonini beradi, chunki ayrim konseptlar alohida til birliklari ma‘nolarini, ularning turli tasniflari va lingvistik kategoriyalarini shakllantirish asosida yotadi.

Konsept mazmuni obyektlar va ularning xususiyatlari, insonning dunyo obyektlari haqida nimani bilishi, o‘ylashi, taxmin qilishi, tasavvur qilishiga doir ma‘lumotlarni o‘z ichiga oladi. Obyekt yoki hodisaning eng umumiy, mantiqan yaxlit xususiyatlarini aks ettiruvchi tushuncha obyektning bir yoki bir nechta, istalgan, shart bo‘lmagan xususiyatlarini aks ettiradi. U obyektlar va hodisalarning muhim xususiyatlarini aniqlash va tushunish asosida, ularning ikkilamchi, individual xususiyatlarini asta-sekin mavhumlashtirish natijasida, ya‘ni nazariy bilimlar natijasida yuzaga keladi. Boshqacha aytganda, konsept va tushuncha o‘rtasidagi farqlar nazariy va kundalik bilimlar o‘rtasidagi farq bilan belgilanadi. Fikrimizcha, ular mazmuniy maydonlari bilan farq qiladi, semantik maydon — tushunchaga asoslangan holda yaratiladi, konseptual maydon — konsept va u voqelangan barcha til birliklarini jamlash bilan xarakterlanadi.

N. N. Boldirev konseptlar shakllanishining quyidagi usullarini qayd etadi:

— sezgi tajribasiga asoslangan, ya‘ni olamni bevosita sezgi organlari orqali idrok etish natijasida: ko‘rish, eshitish, hidlash, teginish va ta‘m orqali;

— insonning kundalik faoliyatiga asoslangan, ya'ni uy-ro'zg'or buyumlari va turli narsalar vositasida amalga oshirgan harakatlari natijasida;

— akademik (ilmiy) faoliyatga asoslangan: ilmiy adabiyotlar, tadqiqot natijalari hamda darsliklar va ixtisoslashtirilgan adabiyotlardan olam haqida bilim olish natijasida;

— aqliy faoliyatga asoslangan, ya'ni avvaldan ma'lum bo'lgan konseptlar bilan mental operatsiyalarga asoslangan holda mulohaza yuritish, xulosalar chiqarish natijasida; verbal va noverbal muloqotga asoslangan holda [Boldirev 2017: 40].

Shu o'rinda struktur tilshunoslikda stilistik vosita sifatida tadqiq qilingan metafora va metonimiya ham konseptual maqomga ega bo'lishi xususida fikr yuritish o'rinli sanaladi. Hozirgi vaqtda metafora va metonimiya mental darajadagi kognitiv mexanizmlar sifatida talqin qilinmoqda. Kognitiv tilshunoslikda metaforaning konseptual mavqeyi ilk bor J. Lakoff va M. Jonsonlar tomonidan asoslanib, metafora oddiy stilistik ifoda vositasi emas, balki konseptual maqomga ega muhim hodisa ekanligi e'tirof etildi hamda uning yangi tabiati ochib berildi. Ularning fikricha, "...metaforalar inson konseptual tizimidan o'rin olgani uchun tilda ifoda vositasi sifatida mavjud. Boshqacha aytganda, metafora aslida tafakkurga xos, lisoniy metaforalar faqat mana shu hodisaning tashqi ifodasidir" [Lakoff & Johnson 2003], "metaforalar nafaqat kundalik hayot, til, balki tafakkur va faoliyatimizga ham kirib boradi. Kundalik konseptual tizimimiz, fikrlashimiz va xatti-harakatimiz ham o'z mohiyatiga ko'ra metaforikdir" [[Lakoff & Johnson 2003: 4].

Konseptual tahlilda konseptning strukturaviy hamda mazmuniy xususiyatlarini aniqlashga qaratilgan usullar tizimi, tilni kognitiv aspektida tadqiq etishning eng asosiy usuli. Konseptual tahlil jarayonida modellashtirish hamda konseptlarni tavsiflashdan iborat metodologik usullar qo'llanadi. Konseptual tahlil amaliyotida esa ko'pincha lug'at ta'riflari va matniy qurshov tahliliga asoslangan tahlillardan foydalaniladi [Xudayberganova 2024: 42].

Yuqorida qayd etib o'tilgan nazariyalar asosida o'zaro qardosh bo'lmagan ingliz va o'zbek tillarida TIL / LANGUAGE (konsept ortida kontekstual ma'no bo'lganligi bois bosh harflar bilan yoki qo'shtirnoqqa olib yoziladi) konseptining konseptual tahlilini amalga oshirgan holda ulardagi mushtarak va farqli jihatlar ochib beriladi. Shu o'rinda tilning tilshunoslikdagi vazifasiga to'liq to'xtalib o'tirmaymiz, ushbu masala yuzasidan A. Mamatovning "Tilning eng muhim 100 ta funksiyasi" [Mamatov 2014] nomli asari tavsiya etiladi.

TIL / LANGUAGE konseptlarining tilda voqelanishini tadqiq qilishda manba sifatida quyidagi lugʻatlar va asarlar tanlab olindi: “Oʻzbek tili sinonimlarining katta izohli lugʻati”; “Oʻzbek tilining etimologik lugʻati”; “Oʻzbek tilining izohli lugʻati”; “Oʻzbek tili omonimlarining izohli lugʻati”; “Hikmatnoma: Oʻzbek maqollarining izohli lugʻati”; “Oʻzbek tili frazeologik lugʻati”; “Oxford Advanced Learner’s Dictionary”; “Oxford Dictionary of Idioms”; “PROVERBS — MAQOLLAR — ПОСЛОВИЦЫ” hamda ingliz tilining etimologik, tezaurus, va omonim onlayn lugʻatlar.

Oʻzbek tilining etimologik lugʻati”da hozirda oʻzbek adabiy tilida sinonim sifatida qoʻllanuvchi til, zabon, lison leksemalari quyidagicha izohlanadi: Til — (tub turkiy soʻz) ogʻiz boʻshligʻida taʼm-maza bilishga, nutq tovushlarini hosil qilishga xizmat qiladigan aʼzo. Qadimgi turkiy tilda ham shunday maʼnoni anglatgan bu ot asli ‘gapir-’ maʼnosini anglatgan ‘ti-‘ feʼlidan ‘—l’ qoʻshimchasi bilan yasalgan ti- +l — til [Rahmatullayev 2000: 336]. Lison — bu arabcha soʻz lisan(un) shakliga ega, oʻzbek tiliga oʻzlashgan, lisan — lisan (lison): asli “gapdon boʻldi” maʼnosini anglatuvchi lasina feʼlidan hosil qilingan, ‘til’, ‘fikrlashuv quroli’ maʼnosini anglatadi [Rahmatullayev 2003: 211–212]. Zabon soʻzi oʻzbek tiliga fors tilidan oʻzlashgan boʻlib, til maʼnosida qoʻllanadi [OʻzTIL II 2006: 121].

Oʻzbek tilidan farqli oʻlaroq, ingliz tilida language monosemantik soʻzi muloqot vositasi maʼnosiga ega boʻlsa, tana aʼzosi maʼnosida tongue leksemasi mavjud. Ammo tongue leksemasining izohida muloqot vosita maʼnosi ham mavjud.

Mazkur ikki leksemaning etimologik maʼnosi quyidagicha: XIII asrda qadimgi fransuz tilidagi “langage” terminidan oʻzlashgan boʻlib, nutq, suhbat yoki millat maʼnosini anglatgan. Uning tadriji qadimgi lotin tilidan dingua, lingua qadimgi fransuz tiliga, langage fransuz tilidan ingliz tiliga language tarzida kirib kelgan [www.etymonline.com].

Tongue tub ingliz tili soʻzi boʻlib, qadimgi tungōn leksemasining shakli. Qadimgi ingliz tilida ushbu soʻz ham tana aʼzosi, ham muloqot vositasi maʼnosida qoʻllanilgan. Uning tadriji quyidagicha: Qadimgi ingliz tilida tunge, oʻrta ingliz tilida *tunge/tong(e)*, hozirgi zamon ingliz tilida *tongue* [www.etymonline.com].

“Oʻzbek tili sinonimlarining katta izohli lugʻati”da til, zabon, lison — kishilar oʻrtasida aloqa-aralashuv uchun xizmat qiluvchi muhim vosita ekanligi qayd qilingan. *Zabon* soʻzi koʻproq kitobiy uslubda qoʻllaniladi. Lison soʻzi mazkur maʼnoda eskirgan” [OʻzTSKIL 2022: 169] — deb qayd etilgan, ammo lison soʻziga berilgan taʼrifga toʻliq qoʻshilib boʻlmaydi,

hozirda lison o'zbek tilida faol so'z hisoblanadi. Shuningdek, hozirgi zamon tilshunosligida sifat so'z turkumidagi lisoniy leksemasi birikma terminlarning tarkibiy qismi sifatida qo'llanadi: lisoniy birliklar, lisoniy omillar kabi.

Ingliz tilining tezaurus lug'atida language so'zining sinonimlari quyidagicha keltiriladi. 1. *speech, tongue, idiom, patois* (past mavqega ega bo'lgan til), *jargon, dialect, slang, cant* (odatda axloqiy, diniy yoki siyosiy xarakterdagi ikkiyuzlamachi va taqvodor nutq), *argot*. 2. *communication, intercourse, interaction*: 3. *jargon, lingua franca, vocabulary, terminology, vernacular*. 4. *wording, words, phrasing, phraseology, style, diction* [dictionary.cambridge.org/thesaurus].

Tongue — *organ of speech, language, speech, dialect, vocabulary, style of speech, power of speech, tongue of his shoe, the tongue of this board, tongue of land* [dictionary.cambridge.org].

Ko'rinadiki, ingliz tilining sinonimlar lug'atida til leksemasining sinonimik qatori kengroq berilgan, deyarli barcha xususiyatlarini anglatuvchi birliklar qayd etilgan.

O'zbek tili omonimlarining izohli lug'atida til leksemasining omonimlari sifatida quyidagilar keltiriladi ot: anat. ter. Ta'm-maza bilish organi, fe'l: uzunasiga kesib, qismlarga ajratmoq. Tilik, tilim, tilka, (tilka-tilka qilmoq), tilma. Qovunni tilib qo'yimoq. Go'shtni tilib-tilib tuzlamoq [Rahmatullayev 1984: 129].

Ingliz tilidagi language leksemasi o'zlashgan so'z bo'lganligi bois omonimi mavjud emas, ammo tongue leksemasining omofonlari mavjud bo'lib, ular quyidagi ma'nolarga ega: Tung — Osiyodagi daraxtlar turkumi va ulardan olingan moy; Tong — arxaik so'z bo'lib, ba'zan mahkamlagich/asbob turi uchun ishlatiladi.

Anglashiladiki, o'zbek tilida so'z turkumi almashishi bilan ma'noda ham o'zgarish kuzatilsa, ingliz tilida bitta so'z turkumiga oid faqatgina omofon bo'lgan leksemalar qayd etilgan.

O'zbek tilining izohli lug'atida til so'zining quyidagi ma'nolari keltiriladi: 1. Og'iz bo'shlig'idagi mushakli a'zo. 2. O'zaro fikr almashishning muhim vositasi; tilshunoslikning asosiy o'rganish obyekti. 3. ... Fikr ifodalash qobiliyati. 4. So'z, ibora, gap, nutq. 5. Tovush, so'z va grammatik vositalar tizimi. 6. Nutqning o'ziga xos ifoda vositalari. 7. ko'chma s. t. Asbob, mexanizmlarning osilib, qimirlab turadigan qismi. 8 ko'chma poet. Tig'ga o'xshash, uchli narsa. 9. ko'chma Insondan boshqa narsalarning o'zaro bir-birini tushunishga xizmat qiladigan vositasi, ifoda vositasi (belgisi). 10.

harb. harbiy asir. 11. Narsa va faoliyatning mohiyati, siri va sh.k. [O‘zTIL 2008: 91–94].

Ingliz tilining Oxford lug‘atida keltirilgan izohlar: Language — 1. Muayyan mamlakatning og‘zaki va yozma muloqot tizimi. 2. Muloqotda tovushlar va so‘zlar tizimidan foydalanish. 3. Nutqning o‘ziga xos uslubi. 4. Harakatlar, belgilar va tovushlar yordamida g‘oyalar va his-tuyg‘ularni ifodalash usuli: tana tili, imo-ishora tili. 5. Kompyuterni boshqarish uchun ishlatiladigan belgilar va qoidalar tizimi [OALD 2010: 865].

Tongue — 1. Og‘izning harakatlanadigan yumshoq qismi. 2. Pishirilgan ho‘kiz tilining bir bo‘lagi. 3. Til (rasmiy yoki adabiy). 4. Gapirishning o‘ziga xos usuli: *Uning tili o‘tkir — He has a sharp tongue.* 5. Fe‘l. tilli: o‘tkir tilli. 6. Poyabzalning bog‘i ostidagi uzun va tor charm bo‘lagi. 7. Uzun tor va tilga o‘xshash shakldagi narsa: olov tili [OALD 2010: 1630].

Inliz va o‘zbek tillari izohli lug‘atlarida til leksemasiga berilgan ta’riflardagi farqli jihatlar: o‘zbek tilida *tadqiqot obyekti, uchli narsa, harbiy asir — inson, biror ishning mohiyati, ya’ni tilini bilmoq* ma’nolar ingliz tilida keltirilmagan bo‘lsa, ingliz tilidagi *kompyuter tili, tana tili, taom* (o‘zbek tilida *til so‘zi molning tili, qo‘yning tili* kabi aniqlovchisi bilan so‘z birikmasi bo‘lib kelganda, taom ma’nosiga ham ega), yoki fe‘l so‘z turkumi sifatida kelishi bilan izohlanadi.

Tanlangan konseptlar kognitiv modellar asosida tadqiq qilinadi. Kognitiv modellar deganda biz inson tafakkurini tashkil etuvchi tuzilmalar, bilimlarni tizimlashtirish, saqlash va ularni qayta ishlash imkonini beruvchi mental qoliplarni tushunamiz. Kognitiv modellashtirish voqelikni faqat ifodalash emas, balki uni idrok etish, anglashdir. Shu jihatdan kognitiv model inson ongidagi bilim tizimini dinamik ravishda tashkil etuvchi, voqelikni anglash va qayta tuzishning asosiy mental mexanizmi sifatida qaraladi.

TIL konseptining leksemalarda voqelanishi: yasama so‘z: *tila, tilda, tildosh, tilli, tillik, tilmoch, tilmochlik, tilparvar, tilparvarlik, tilsimon, tilsiz, tilsizlanmoq, tilsizlik, til-uslub, tilcha (anat.), tilcha (bot.), tilchi, tilchilik, tilshunos, tilmoch. Tongued* (maxsus tilga ega bo‘lmoq), *tongueless* (fikrni bayon qila olmaslik). Qo‘shma so‘z tarkibida: *tilxat, tilyorar, tilyog‘lama, tilyog‘lamachi, tilyog‘lamachilik, tiloldi, tilorqa, tilosti, tilshirinlik. Bluetongue* (chorva mollarida tilida uchraydigan kasallik, og‘iz va tilning ko‘k rangga kirishi), *beardtongue* (o‘simlik nomi), *tongue-tied* [Martin Manser 2016].

TIL / LANGUAGE konseptining maqol va frazeologik birliklarda voqelanishi:

TIL — KUCH. *Ko‘z yetmagan yerga so‘z yetadi. Yel kirolmagan yerga so‘z kiradi. Kuch egolmaganni so‘z egadi. Fil ko‘tarmaganni til ko‘taradi. Fil kuchli, fildan ham til kuchli. Til kichik bo‘lsa ham, dunyoni buzib, tuzatadi. O‘n birni o‘ldiradi, So‘z — mingni. Til bilan tugilgan tugun tish bilan yechilmas* [Hikmatnoma 1990: 390]. *Til(i) o‘tkir* — gaplarida mantiq kuchli, fikr ifodalashga usta. *Til-jag‘(i)ni bog‘lamoq* — o‘z fikrini ochiq ayta olmaydigan qilib qo‘ymoq. *Til(i) qisiq bo‘ldi* — *Til(i)ni qisiq qilmoq* — gapirmaslikka, e‘tiroz bildirmaslikka majbur bo‘lmoq. Ingliz tilida *One's tongue runs before one's wit*.

O‘zbek tilida aynan tarkibida TIL konsepti bo‘lgan frazeologik birliklar hamda til ma‘nosida so‘z leksemasi qo‘llanilgan. Misollarda tilning kuchi har narsadan ustunligi, har ikki til madaniyatida tilning kuchi jismoniy kuchdan ustun ekanligi voqelanadi. Til tig‘i qilich tig‘idan o‘tkir. The tongue is not steel, yet it cuts. (Til po‘latdan emas, ammo chopar.) Insonga salbiy kuch sifatida ta‘siri Suv toshni yoradi, So‘z — boshni. Tayoq etdan o‘tadi, So‘z suyakdan. Better the foot slips than the tongue. (Til toygandan oyoq toygani afzal) [PROVERBS — MAQOLLAR — ПОСЛОВИЦЫ 2000]. Chog‘ishtirilayotgan tillar madaniyatida TIL konsepti qurolga qiyos qilinadi. Qilich kesolmaganni so‘z kesadi. Til tig‘dan o‘tkir. A good tongue is a good weapon. (Yaxshi til yaxshi qurol.) O‘zbek madaniyatida noxushliklar sodir qiluvchi kuch fil, qilich, suv, tosh obrazlari maqollarda qo‘llangan bo‘lsa, ingliz tili maqollarida hayotiy holatlar jo‘n misollar orqali ifodalagan.

TIL — SABAB. *Boshga balo qaydan kelur? — Ikki enlik tildan kelur.* Har ikki xalq madaniyatida til yaxshilikka ham, yomonlikka ham sabab bo‘ladi. *Til bor — bol keltiradi, Til bor — balo keltiradi.* What the heart thinks, the tongue speaks. (Nimani yurak o‘ylasa, til shuni so‘zlaydi.). Ikki tilda ham dil va til munosabatining bog‘liqligi aks etgan maqollar uchraydi. *Dilda nima bo‘lsa — tilga shu keladi. Til — dil tilmochi. Language is the dress of thought.* (Til — tafakkurning libosi.) *Virtue dwells not in the tongue but in the heart.* Ehtiyotkorlik va sokinlikni anglatuvchi maqollar: *Tilning bo‘shligi boshga yetadi. A still tongue makes a wise head.* (Jim turgan til aqlli boshni yaratar.)

Til erni go‘rga solar, Norni — qozonga. Bir so‘z to‘rga eltar — Bir so‘z go‘rga. Bir so‘z kuldiradi, bir so‘z o‘ldiradi. Kuldiradigan ham — til, O‘ldiradigan ham — til. Suydirgan ham — til, Kuydirgan ham — til. Ochiq til osh yedirar, Achchiq til tosh yedirar. Sigir o‘z tilidan qirchang‘i bo‘ladi (sigirning odati shuki, tili bilan tanasining u yer-bu yerini hadeb yalayveradi. Uning qirchang‘i (qo‘tir) bo‘lishiga o‘z tili sababchi bo‘ladi. Maqolning majoziy ma‘nosi shuki, odam ham tiliga ehtiyot bo‘lmasa, axiri bir kun o‘z boshiga bir balo orttiradi.) Odam so‘zidan ushlanadi, Mol —

muguzidan. Qo'tir qo'ldan yuqar, Balo — tildan. O'n baloning to'qqizi tildan tugar. Uzun til boshga — boshga to'qmoq, bo'yinga sirtmoq. Tili uzunning — ishi xujrun. Tog' — toshni suv buzar, El orasini so'z buzar. Do'sting ham — til, Dushmaning ham — til. Tilni bilish — dilni bilish. Xushomad so'zlagan til Yalab-yalab yara etar. El lafzidan, Qo'y bo'g'zidan (kesiladi). Ingliz tilida When Guns speak; it is too late to argue. (Miltiq tilga kirganda, muzokara uchun kech.) Til — aql bezagi. Tongue, one / is enough for a woman. (Bir ayolga bir til yetarlidir) There is no Venom in the tongue. A good tongue is a good weapon. (Yaxshi til — yaxshi qurol).

Chog'ishtirilayotgan tillarda TIL konsepti voqelangan til maqol va frazeologik birliklarda quyidagi farqli jihatlarni kuzatish mumkin, xususan, til sabab bo'lgan jazo o'zbek maqollarida ifodalangan bo'lsa, ingliz maqollarida ko'proq mulohaza bilan bog'liqlik kuzatiladi. Shuningdek, o'zbek tilida jamiyatni parokanda qiluvchi kuch, ingliz tilida shaxsiy xulq-atvor va fikrga qaratilgan kuch. O'zbek maqollarida *go'r, sirtmoq, to'qmoq, tog'-tosh* kabi badiiy obrazlar qo'llanilgan bo'lsa, ingliz maqollari esa ixcham, mantiqiy va falsafiy mazmunga egaligini kuzatish mumkin. Anglashiladiki, ikki madaniyatda ham til katta kuch, ammo o'zbek maqollarida u ko'proq taqdirni belgilaydigan sabab, ingliz maqollarida esa aql va fikrning ifodasi sifatida talqin qilinadi.

TIL — OQIBAT. *Baxtli qiladigan ham — til, Baxtsiz qiladigan ham — til. Sevdigan ham — til, Bezdirgan ham — til. Tildan bol ham tomadi, og'u ham. Shakar ham — tilda, Zahar ham tilda. Dunyoda eng chuchuk narsa ham — til, Eng achchiq narsa ham — til. Oyoq yugurigi oshga, Til yugurigi boshga. Tili uzunning umri qisqa. Toqqa nima deb qichqirsang, shuni eshitasan. (Birovga yaxshi gapirsang, undan ham yaxshi gap eshitasan, yomon gapirsang, qo'pol muomala qilsang, haqoratlasang, so'ksang, shunga yarasha javobini olasan. Shuning uchun birovga gapiradigan gapingni bilib, o'ylab, aql tarozusida o'lchab, ana undan keyin gapir, deyilmoqchi). Achchiq savol berib, shirin javob kutma. Suyaksiz til suyakni sindirar. Qo'lingni yuvib yur, nima yeyaring bilmaysan, Tilingni tiyib yur, nima deyaring bilmaysan. Oyog'idan qulagan — turadi, Og'zidan “qulagan” — turmaydi. Oyoq toysa tuzalar — Til toysa tuzalmas. G'arazli savol bersang, G'azabli javob olasan. Yomon so'z egasiga qaytar. Til(i)ga kaltak keldi — kutilmagan hodisaga duch kelib, biror so'z aytishdan ojiz bo'lib qolmoq.*

Keltirilgan misollar TIL konsepti yaxshilik va yomonlik sababchisi, gapirilgan har bir so'zni qaytishi, til og'ir sabablarga olib kelishi voqelangan. Shuningdek, uning oqibati bol-og'u, shakar-zahar, chuchuk-achchiq zidlash usulida qo'llangan.

TIL — DAVRIY TABAQALANISH, ya'ni mustamlaka bo'lgan davlatlarda mustamlakachi davlat tilida gapirish oliy martaba sanalgan, masalan, ingliz tilida (Hindiston, Avstraliya, Yangi Zelandiya, Afrika mamlakatlari, Malayziya, Indoneziya), rus tilida (O'zbekiston, Qozog'iston, Gruziya, Ozarbayjon, Litva, Moldova, Latviya, Qirg'iziston, Tojikiston, Armaniston, Turkmaniston, Estoniya), fransuz tilining rus tiliga ta'siri XVII asrning to'rtinchi choragida Pyotr tomonidan Yevropa bilan siyosiy chegaralarning birinchi marta ochilishi bilan boshlangan bo'lib, keyinchalik Yekaterina II ushbu tilni madaniyat tili darajasida ko'rganligi bois, rus zodagonlari fransuz tilini asosiy muloqot vositasi, aslzodalar nutqi sifatida ko'rganlar: *kavaler* (fr. cavalier), *madam* (fr. madame), *teatr* (fr. théâtre), *ministr* (fr. ministre). Ingliz tilida ham TIL — TABAQALANISH modeli asosida aforizmlar uchraydi. Rim imperiyasining qiroli Karl V ispan, fransuz, italyan va nemis tilini mukammal bilgani bois ularga quyidagicha ta'rif beradi “*I speak Spanish to God, Italian to women, French to men, and German to my horse.*” (Men xudoga ispan tilida, ayollarga italyan tilida, erkaklarga fransuz tilida, otlarga nemis tilida gapiraman). Tarixchilar ushbu fikrning nolisoniy omillari sifatida quyidagi faktlarni keltiradilar: ispan tili din tili sifatida, italyan tili mayin talaffuzga ega bo'lganligi bois sevgi tili sifatida, fransuz tili diplomatiya va ko'plab qirollik sudyalarining tili sifatida (o'sha paytda diplomatiya bilan shug'ullanadigan ayollar kam edi), nemis tilining talaffuzi, dag'al va buyruq ohangli ekanligi.

TIL — XARAKTER *Til(i) achchiq* — kishining ta'biga tegib gapiradigan. *Til(i) tez* — dilni xira qiladigan so'zlarni ham aytib yuboraveradigan. *Til(i) tinmaydi* — gapirishdan to'xtamaslik. *Tili uzun* — betgachopar. *Til uzatib* — gap kovlamoq. Ingliz tilida *The Tongue of idle people is never idle.* (Dangasaning tili sira dangasa bo'lmas.) Dangasaga ish buyursang, senga aql o'rgatar.

O'zbek va ingliz tillaridagi ibora va maqollarida TIL konsepti insonning fe'l-atvori so'zlash uslubida aks etishini ko'rsatadi. Har ikki tilda ham til inson xarakteri oynasi sifatida qaraladi. Farqli jihatlariga esa o'zbek tilida individga xos xususiyatlar nazarda tutilgan bo'lsa, ingliz tilida jamoaviy xislatlarga urg'u beriladi.

TIL — YOLG'ON *Til(i) boshqa, dil(i) boshqa* — aytgan gapi bilan qilgan ishi maqsadi mos emas, teskari. Til uchinda I — tar. bajarishga oson, tayyor. *Til uchida* — shunchaki ko'ngil uchun, nosamimiy. *To speak with a forked tongue* — (s.s.tarj. vilka sanchilgan tilga ega bo'lmoq) bila turib yolg'on gapirish. Mazkur idioma ilonning tilni ayirish tasviridan kelib chiqqan bo'lib, ikkiyuzlamachilik va ishonchsizlikni ramziy ma'noda anglatadi.

Keltirilgan misollarda TIL konsepti sodiqlik yoki yolgʻonchilikka xizmat qilishi koʻrsatiladi. Agar til ishonchli maqsadga muvofiq boʻlsa, natijasi samarali boʻladi, aksi boʻlsa, ishonchsizlik boʻladi.

TIL — AQLIY SALOHIYAT *Til(i) kelishadi* — (soʻziga) toʻgʻri, aslicha talaffuz qila olmoq. Ingliz tilida *to speak over someone's head* — kimnidir tafakkuriga mos yoki bilimi yetmaydigan darajada gapirish. Agar siz kimningdir boshi ustidan gapirsangiz, tilingiz yoki terminologiyangiz tinglovchilaringiz toʻliq tushunishi uchun juda rivojlangan, murakkab yoki ixtisoslashgan. Bu idioma sizning soʻzlaringiz majoziy maʼnoda ularning ularning tushunish darajasiga yetib bormayotganini anglatadi.

TIL — HAYAJON *Til(i) kelmadi* — uchli hayajon, gʻazab holatida oʻz fikrini aytolmay, lol boʻlib turmoq. *Til(i) tutildi* — aytib turgan fikrini davom ettira olmaslik. Ingliz tilida *to be tongue-tied* (s.s.tarj. tili boylangan boʻlmoq) — hayajon yoki uyatdan soʻz topa olmaslik.

TIL konseptining aqliy salohiyat va hayajon bilan bogʻliq qirralarini ham oʻzida aks ettirar ekan. Demak, til nafaqat muloqot vositasi, balki insonning aqliy va emotsional holatini ham aks ettiruvchi eng sezgir vosita hisoblanadi.

Ingliz madaniyatida qimmat metallar orasida kumush nafislik va yuksak qadriyat, xotirjamlik, ravshanlik ramziy maʼnolariga ega. Shuningdek, kumush inson umrining birinchi choragini (25 yillik) nishonlashning ramzi sanaladi. Hattoki ingliz tilida insonlarni oʻz nutqi orqali insonlarni ergashtira oladigan insonni *silver tongued* (kumush tilli) — *grat skill at persuading people to do believe what you say* metafora orqali hosil boʻlgan frazeologik birligi mavjud boʻlib, kumushning sofligi va qiymati inobatga olingan. **LANGUAGE — MANIPULATION (TIL — MANIPULYATSIYA)** *To be a silver-tongued devil* — kumush tilli shayton, bu oʻz nutqida nihoyatda ishonarli va xarizmatik boʻlgan, ammo oʻz manfaatlari uchun boshqalarni aldash yoki manipulyatsiya qilish niyatida boʻlgan odam. Bu idioma “kumush til”ga ega boʻlishning ijobiy maʼnosini shaytoniy yoki ishonchsiz boʻlishning salbiy assosiatsiyasi bilan birlashtiradi.

TIL / LANGUAGE konsepti turli aforizmlarda ham voqelanishi koʻzga tashlanadi.

Yor uldurkim tiliyu koʻngli oning boʻlsa bir,

Kim tili oʻzgayu koʻngi oʻzgadur ul yor emas (Alisher Navoiy).

“A different language is a different vision of life.” (Oʻzga til oʻzga dunyoni koʻrish demakdir) — Federico Fellini, Italian film director

“If you talk to a man in a language he understands, that goes to his head. If you talk to him in his language, that goes to his heart” (Siz kishiga tushunadigan tilida gapirsangiz, bu uning ongiga ta’sir qiladi, agar uning ona tilida gapirsangiz, bu uning yuragiga ta’sir qiladi) — Nelson Mandela.

“Change your language, and you change your thoughts.” (Tilingizni o’zgartiring shunda fikringiz ham o’zgaradi) — Karl Albrecht.

“Learn a new language and get a new soul.” (Yangi tilni o’rganing va yangi qalbni kashf qiling) — Czech Proverb.

Xulosa

Konsept tahlilida tanlangan konseptning eksplitsit tarzda (aynan tanlangan konseptning til tarkibida kelishi) hamda implitsit tarzda (boshqa til birliklari orqali anglashilishi) voqelanishi ochib beriladi. Aynan shu nuqtada konseptning mental birlik ekanligi asoslanadi.

Chog’ishtirilayotgan tillarda TIL / LANGUAGE konseptlari birlamchi lug’aviy ma’nosida ingliz tilida fikrni ifodalovchi vosita sifatida izohlansa, o’zbek tilida muloqot vositasi sifatida izohlanadi. Ingliz tilida TIL konsepti birlamchi ikki leksik birliklar language va tongue orqali ifodalanadi, o’zbek tilida esa faqatgina til leksemasi mavjud.

Konsept tadqiqini to’liq amalga oshirish juda mushkul, buning sababi uning idrok bilan bog’liq ekanligidir. Idrok esa chegara bilmas holat sanaladi. Shunday ekan, inson tafakkuri dinamik hodisa sifatida doimo takomillashib boradi. Yuqorida tanlangan TIL / LANGUAGE konseptining tilda voqelangan lisoniy birliklar vositasidagi tahlili amalga oshirildi hamda ularning yuqorida e’tirof etilgan modellarni hosil qilganligi aniqlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar

Ашурова Д.У. Перспективы научных исследований в свете новых направлений лингвистики // Филология масалалари. — Ташкент, 2004. — № 4. — С. 37–40.

Ашурова Д.У. Когнитивная сущность конвенциональной и художественной метафоры: сопоставительный анализ // Вопросы когнитивной лингвистики. — 2023. — № 1. — С. 121–136.

Бодуэн де Куртенэ И.А. Избранные труды по общему языкознанию. — Т. 2. — Москва: Изд-во АН СССР, 1963. — 391 с.

Болдырев Н.Н. Категориальная система языка // Категоризация мира в языке / Когнитивные исследования языка. — Москва—Тамбов, 2012. — С. 17–120.

- Болдырев Н.Н. Когнитивная семантика: Введение в когнитивную лингвистику. — Тамбов: ФГБОУ ВПО Тамбовский государственный университет им. Г.Р. Державина, 2014. — 236 с.
- Гумбольдт В. Избранные труды по языкознанию. — Москва: Прогресс, 1984. — 397 с.
- Кубрякова Е.С., Демьянков В.З., Панкрац Ю.Г., Лузина Л.Г. Краткий словарь когнитивных терминов. — Москва: Филологический факультет МГУ им. М.В. Ломоносова, 1997. — 245 с.
- Маматов А.Э. Тилга когнитив ёндашувнинг моҳияти нимада? // Ўзбек тилшунослигининг долзарб муаммолари. — Андижон, 2012. — Б. 212–220.
- Маматов А.Э. Тилнинг энг муҳим 100 та функцияси. — Тошкент: ВАҲОЗ, 2014. — 40 б.
- Маҳмудов Н. Тил. — Тошкент: Ёзувчи, 1998. — 37 б.
- Маҳмудов Н. Тилимизнинг тилла сандиғи. — Тошкент: Гафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2015. — 152 б.
- Маҳмудов Н. Тилнинг мукамал тадқиқи йўллари излаб... // Ўзбек тили ва адабиёти. — Тошкент, 2012. — № 5. — Б. 3–16.
- Попова З.Д., Стернин И.А. Когнитивная лингвистика. — Москва: Восток-Запад, 2007. — 314 с.
- Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тили омонимларининг изоҳли луғати. — Тошкент: Ўқитувчи, 1984. — 216 б.
- Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. I (туркий сўзлар). — Тошкент: Университет, 2000. — 600 б.
- Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. II (араб сўзлари ва улар билан ҳосилалар). — Тошкент: Университет, 2003. — 600 б.
- Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. — Жиззах: Сангзор, 2006. — 92 б.
- Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 2-жилд. — Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. — 672 б.
- Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 4-жилд. — Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008. — 608 б.
- Худойберганова Д. Матнинг антропоцентрик тадқиқи. — Тошкент: Фан, 2013. — 136 б.

Xudayberganova D. Zamonoviy tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati. — Toshkent: Bookmany Print, 2024. — 112 b.

Ҳикматнома: Ўзбек мақолларининг изоҳли луғати. — Тошкент: Ўзбекистон Совет Энциклопедияси Бош редакцияси, 1990. — 528 б.

Юлдашев А.Г. Идиоматик кўшма сўзларнинг лингвокогнитив аспекти (инглиз ва ўзбек тиллари мисолида): филол. фан. бўйича фалсафа д-ри (PhD) дисс. ... автореф. — Тошкент, 2017. — 47 б.

Юлдашев А.Г. Тилда олам ҳақидаги билимлар иккиламчи интерпретациясининг антропоцентрик моҳияти: филол. фан. д-ри (DSc) дисс. ... автореф. — Тошкент, 2022. — 72 б.

Юсупов Ў.Қ. Тилшуносликдаги янги йўналишлар ва уларда ишлатиладиган айрим истилоҳлар // Филология масалалари. — Тошкент, 2011. — № 2. — Б. 9–15.

Clausner T.C., Croft W. Domains and image schemas // Cognitive Linguistics. — 1999. — Vol. 10. — No. 1.

Lakoff G., Johnson M. Metaphors We Live By. — 2nd ed. — Chicago: The University of Chicago Press, 2003. — 256 p.

Manbalar

Manser M. Useful Dictionary of Derived Words. — London: Global ELT, 2016. — 1092 p.

O‘zbek tili frazeologik lug‘ati [Matn]: lug‘at / Sh. Rahmatullayev, N. Mahmudov, Z. Xolmanova, I. O‘razova, K. Rixsiyeva. — Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2022. — 636 b.

Ўзбек тилининг катта имло луғати. — Тошкент: Kafolat Print Company, 2023. — 648 б.

Oxford Advanced Learner’s Dictionary. 8th ed. — Oxford: Oxford University Press, 2010. — 1796 p.

Proverbs — Maqollar — Пословицы / Tuzuvchilar: K. M. Karomatova, H. S. Karomatov. — Toshkent: Mehnat, 2000. — 400 b.

<https://dictionary.cambridge.org/thesaurus/language>

<https://dictionary.cambridge.org/thesaurus/language;>

<https://dictionary.cambridge.org/thesaurus/tongue>

[https://dictionary.cambridge.org/thesaurus/tongue.](https://dictionary.cambridge.org/thesaurus/tongue)

<https://www.etymonline.com/word/tongue>

<https://www.etymonline.com/word/tongue>

<https://www.etymonline.com/word/tongue>

References

- Ashurova, D.U. (2004). *Filologiya masalalari*, No. 4, 37–40. (In Rus.)
- Ashurova, D.U. (2023). *Voprosy kognitivnoy lingvistiki*, No. 1, 121–136. (In Rus.)
- Boduen de Kurtene, I.A. (1963). *Izbrannye trudy po obshchemu yazykoznaniyu* (Selected works on general linguistics), Vol. 2, Moscow, Izd-vo AN SSSR. (In Rus.)
- Boldyrev, N.N. (2012). *Kategorialnaya sistema yazyka* (Categorical system of language), Moscow, Tambov, 17–120. (In Rus.)
- Boldyrev, N.N. (2014). *Kognitivnaya semantika* (Cognitive semantics: Introduction to cognitive linguistics), Tambov, Tambovskiy gosudarstvennyy universitet im. G.R. Derzhavina. (In Rus.)
- Gumboldt, V. (1984). *Izbrannye trudy po yazykoznaniyu* (Selected works on linguistics), Moscow, Progress. (In Rus.)
- Kubryakova, E.S., Demyankov, V.Z., Pankrats, Yu.G., Luzina, L.G. (1997). *Kratkiy slovar kognitivnykh terminov* (Brief dictionary of cognitive terms), Moscow, MGU. (In Rus.)
- Mamatov, A.E. (2012). *Tilga kognitiv yondashuvning mohiyati nimada* (What is the essence of the cognitive approach to language), Andijon, 212–220. (In Uzb.)
- Mamatov, A.E. (2014). *Tilning eng muhim 100 ta funksiyasi* (The 100 most important functions of language), Tashkent, BAYOZ. (In Uzb.)
- Mahmudov, N. (1998). *Til* (Language), Tashkent, Yozuvchi. (In Uzb.)
- Mahmudov, N. (2015). *Tilimizning tilla sandigi* (The golden treasury of our language), Tashkent, Gafur Gulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi. (In Uzb.)
- Mahmudov, N. (2012). *Uzbek tili va adabiyoti*, No. 5, 3–16. (In Uzb.)
- Popova, Z.D., Sternin, I.A. (2007). *Kognitivnaya lingvistika* (Cognitive linguistics), Moscow, Vostok-Zapad. (In Rus.)

- Rakhmatullaev, Sh. (1984). *Uzbek tili omonimlarining izohli lugati* (Explanatory dictionary of Uzbek homonyms), Tashkent, Oqituvchi. (In Uzb.)
- Rakhmatullaev, Sh. (2000). *Uzbek tilining etimologik lugati* (Etymological dictionary of the Uzbek language), Vol. 1, Tashkent, Universitet. (In Uzb.)
- Rakhmatullaev, Sh. (2003). *Uzbek tilining etimologik lugati* (Etymological dictionary of the Uzbek language), Vol. 2, Tashkent, Universitet. (In Uzb.)
- Safarov, Sh. (2006). *Kognitiv tilshunoslik* (Cognitive linguistics), Jizzakh, Sangzor. (In Uzb.)
- Uzbek tilining izohli lugati* (Explanatory dictionary of the Uzbek language), Vol. 2, Tashkent, Uzbekistan Milliy Ensiklopediyasi, 2006. (In Uzb.)
- Uzbek tilining izohli lugati* (Explanatory dictionary of the Uzbek language), Vol. 4, Tashkent, Uzbekistan Milliy Ensiklopediyasi, 2008. (In Uzb.)
- Xudayberganova, D. (2013). *Matnning antropotsentrik tadqiqi* (Anthropocentric study of text), Tashkent, Fan. (In Uzb.)
- Xudayberganova, D. (2024). *Zamonoviy tilshunoslik terminlarining izohli lugati* (Explanatory dictionary of modern linguistic terms), Tashkent, Bookmany Print. (In Uzb.)
- Hikmatnoma: Uzbek maqollarining izohli lugati* (Hikmatnoma: explanatory dictionary of Uzbek proverbs), Tashkent, Uzbek Sovet Ensiklopediyasi Bosh redaksiyasi, 1990. (In Uzb.)
- Yuldashev, A.G. (2017). *Idiomatik qushma sozlarning lingvokognitiv aspekti* (Linguocognitive aspect of idiomatic compound words), Tashkent. (In Uzb.)
- Yuldashev, A.G. (2022). *Tilda olam haqidagi bilimlar ikkilamchi interpretatsiyasining antropotsentrik mohiyati* (Anthropocentric nature of secondary interpretation of knowledge about the world in language), Tashkent. (In Uzb.)
- Yusupov, U.Q. (2011). Filologiya masalalari, No. 2, 9–15. (In Uzb.)
- Clausner, T.C., Croft, W. (1999). Cognitive Linguistics, Vol. 10, No. 1.
- Lakoff, G., Johnson, M. (2003). *Metaphors We Live By*, Chicago, University of Chicago Press.

Sources

- Manser, M. (2016). *Useful Dictionary of Derived Words*, London, Global ELT.

Rahmatullayev, Sh., Mahmudov, N., Xolmanova, Z., Urazova, I., Rixsiyeva, K. (2022). *Uzbek tili frazeologik lug'ati* (Phraseological dictionary of the Uzbek language), Tashkent, Gafur Gulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi. (In Uzb.)

Uzbek tilining katta imlo lugati (Large orthographic dictionary of the Uzbek language), Tashkent, Kafolat Print Company, 2023. (In Uzb.)

Oxford Advanced Learner's Dictionary, 8th ed., Oxford, Oxford University Press, 2010.

Karomatova, K.M., Karomatov, H.S. (2000). *Proverbs — Maqollar — Poslovitsy* (Proverbs), Tashkent, Mehnat.

<https://dictionary.cambridge.org/thesaurus/language>

<https://dictionary.cambridge.org/thesaurus/language;>

<https://dictionary.cambridge.org/thesaurus/tongue>

[https://dictionary.cambridge.org/thesaurus/tongue.](https://dictionary.cambridge.org/thesaurus/tongue)

<https://www.etymonline.com/word/tongue>

<https://www.etymonline.com/word/tongue>

<https://www.etymonline.com/word/tongue>